

O'zbekiston hududidan 108 yil oldin terilgan va hozirda yo'qolib ketgan turning gerbariy namunasidan DNK ajratib olindi

O'zR FA Botanika institutining Molekulyar filogeniya va biogeografiya laboratoriyasida O'zbekiston florasidagi endem o'simliklarining DNK barkodi va bankini yaratishga oid davlat dasturi asosida ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Laboratoriya xodimlari O'zbekiston hududida uchragan, shuningdek, O'zbekiston Qizil kitobida kamyoblik darajasi "0" sifatida kiritilgan Omonqo'ton tangao'tining (*Hedysarum amankutanicum* B. Fedtsch.) O'zbekiston Milliy gerbariysida (TASH) saqlanayotgan yagona namunadagi **1913-yilda** terilgan gerbariysi bargidan foydalangan holda yadro DNK sini sifatli darajada ajratib olishga muvaffaq bo'lishdi.



Hortus Botanicus Imperialis Petropolitanus.

Гербарій Переселенческого Управління.



TYPUS

Hedysarum amaneutanicum
B. Fedtsch.
III 1961 Determ. A. Borissova

Гербарій Переселенческого Управління.
Б. А. Федченко : Самаркандско-Бухарская экспедиция 1913 г.
№ 1074
Hedysarum amaneutanicum
Самаркандская обл., Самаркандский уезд,
С. А. с.т. Зердишанского хребта, Ашад-
хузма, 20 апреля 1913
Собр. А. И. Михельсонъ.
B. A. FEDTSCHENKO: Her. Samarquandense Bucharicum 1913.



Uzoq yillar davomida dala tadqiqotlarida topilmagan, ya'ni yo'qolib ketgan deb taxmin qilinayotgan turni yadro DNK sini ajratib olish va buning uchun yangi metoddan foydalanilganligi diqqatga sazovor. Mazkur yangi metodni nafaqat Hedysarum amankutanicum uchun, balki boshqa yo'qolib ketgan va eski namunadagi gerbariylerden DNK ajratib olish uchun ham foydalanish mumkin. Hozirda ushbu yangi metodga patent olish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi Intellektual Mulk agentligiga tegishli hujjatlar tayyorlanmoqda.

